

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60410200 – Buxgalteriya hisobi
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60410200 – Buxgalteriya hisobi

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: BABAXANOVA NILUFAR USMANDJANOVNA

Toshkent davlat transport universiteti

falsafa doktori (PhD)



A'zo: GIACOMO ANNESE

Malta Further and Higher Education Authority

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260062
Xulosa raqami	1316
Xulosa sanasi	02.07.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Namangan shahri, Davlatobod tumani, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Litsenziya: № 2734834, 20.02.2025. Guvohnoma: MAS № 0000386, 23.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Buxgalteriya hisobi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60410200
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 2734834, 20.02.2025
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60410200 – Buxgalteriya hisobi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60410200 – Accounting
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60410200 – Бухгалтерский учет
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	masofaviy
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	—
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	400 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Namangan shahri, Davlatobod tumani, Sportchilar ko'chasi, 1-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

60410200 – "Buxgalteriya hisobi" ta'lim dasturi bo'yicha tashkiliy-boshqaruv tizimi hamda ta'lim sifatini ichki ta'minlash mexanizmlariga oid taqdim etilgan hujjatlar va amaliyot holati tahlil qilindi. O'rganish natijasida mas'ul kafedra faoliyati samarali yo'lga qo'yilgani, boshqaruv tizimida vakolat va mas'uliyatlar aniq belgilanganligi, istiqbolli rivojlanish rejasi ishlab chiqilgani hamda ichki sifat monitoringi muntazam amalga oshirilayotgani aniqlandi. Shuningdek, ta'lim dasturini boshqarishda manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik, sifat ko'rsatkichlarini monitoring qilish va ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan mexanizmlar amaliyotga tatbiq etilgani qayd etildi. Masofaviy ta'lim shaklining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, boshqaruv jarayonlarini raqamli platformalar orqali samarali tashkil etish va nazorat qilish ta'lim sifatining barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Tahlil davomida ayrim jarayonlarni yanada tizimlashtirish yuzasidan tavsiyalar shakllantirilgan bo'lsa-da, ular ta'lim dasturining mazkur mezon bo'yicha umumiy muvofiqligiga ta'sir ko'rsatmaydi. O'rganish natijalari ushbu bob bo'yicha belgilangan talablarning bajarilganini tasdiqladi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Ta'lim dasturining maqsad va vazifalari, o'quv reja, malaka talablari, fan dasturlari, kutilayotgan ta'lim natijalari hamda shakllantirilishi nazarda tutilgan kompetensiyalar atroflicha tahlil qilindi. O'rganish natijasida dastur mazmuni davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi va mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqilgani, o'quv natijalari hamda kasbiy kompetensiyalar aniq belgilab berilgani aniqlandi. Shuningdek, ta'lim dasturini shakllantirishda milliy rivojlanish ustuvorliklari, zamonaviy buxgalteriya hisobi amaliyoti hamda xalqaro tajribalar inobatga olingani, o'quv jarayoni masofaviy ta'lim shaklining xususiyatlariga mos

kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgani qayd etildi. Ta'lim mazmunida raqamli texnologiyalar va zamonaviy buxgalteriya hisobini yuritish dasturlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilgani, bu esa bitiruvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi baholandi. Tahlil natijalari mazkur bob bo'yicha belgilangan mezonlarning to'liq bajarilganini hamda ta'lim dasturi mazmuni amaldagi talablarga muvofiq shakllantirilganini ko'rsatdi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

Ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quv faoliyatini boshqarish, o'quv natijalarini baholash tizimi hamda masofaviy ta'limni amalga oshirish bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar va amaliyot holati tahlil qilindi. O'rganish natijasida o'quv jarayoni davlat ta'lim standartlari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq tashkil etilgani aniqlandi. Masofaviy ta'lim teacher-elms.namdtu elektron platformasi orqali amalga oshirilayotgani, unda o'quv materiallari, mustaqil ta'lim topshiriqlari, nazorat shakllari, baholash mezonlari hamda talabalar bilan qayta aloqa jarayonlari tizimli yo'lga qo'yilgani qayd etildi. Shuningdek, akademik halollik tamoyillariga rioya etish, baholash mezonlarining ochiqligi va ta'lim jarayonining shaffofligini ta'minlash bo'yicha zarur mexanizmlar joriy etilgani aniqlandi. Masofaviy ta'lim sharoitida baholash jarayonlarining ishonchliligi, ta'lim oluvchilarni identifikatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish hamda elektron platforma imkoniyatlarini yanada kengaytirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. O'tkazilgan tahlillar mazkur bob bo'yicha belgilangan talablarning bajarilganini va ta'lim jarayonining amaldagi akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini tasdiqladi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi, talabalar kontingenti harakati, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari hamda qo'llab-quvvatlash tizimiga oid hujjatlar va amaliyot holati tahlil qilindi. O'rganish natijasida qabul jarayonining amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida ochiq va shaffof tashkil etilgani, talabalar harakatini tartibga soluvchi tartib-taomillar belgilanganligi hamda ta'lim oluvchilarning murojaatlarini ko'rib chiqish va ularga tezkor javob qaytarish tizimi samarali yo'lga qo'yilgani aniqlandi. Shuningdek, talabalarga zarur axborotni o'z vaqtida yetkazish, akademik va texnik maslahatlar berish hamda ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan xizmatlar muntazam faoliyat yuritayotgani qayd etildi.

Belgilangan 400 nafar qabul parametri mavjud pedagogik salohiyat, moddiy-texnik baza va masofaviy ta'lim platformasining imkoniyatlari bilan o'zaro mutanosib holda rejalashtirilgani kuzatildi. Masofaviy ta'lim shaklida tahsil olayotgan talabalar uchun onlayn maslahat, texnik yordam va maslahat xizmatlarining uzluksiz ishlashi ta'lim sifatini ta'minlash hamda talabalarni samarali qo'llab-quvvatlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. O'rganish natijalari mazkur bob bo'yicha belgilangan mezonlarning bajarilganini tasdiqladi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Professor-o'qituvchilar tarkibi, ularning ilmiy salohiyati, malaka darajasi, boshqaruv va o'quv-yordamchi xodimlar faoliyati, shuningdek, ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur kadrlar ta'minotiga oid hujjatlar tahlil qilindi. O'rganish natijasida professor-o'qituvchilarning mutaxassisligi o'qitilayotgan fanlar yo'nalishiga mosligi, ilmiy va pedagogik salohiyat ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli ekani hamda yangi fanlar va ta'lim komponentlari bo'yicha kadrlar ehtiyoji istiqbolli rejalar asosida shakllantirilgani aniqlandi. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash, malakasini muntazam oshirish va ularni rag'batlantirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilayotgani qayd etildi. Masofaviy ta'lim sharoitida pedagoglarning raqamli didaktika, elektron ta'lim resurslarini yaratish va zamonaviy ta'lim platformalaridan samarali foydalanish bo'yicha kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim sifati va o'quv jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Shu bilan birga, mazkur yo'nalishdagi malaka oshirish ishlarini izchil davom ettirish ta'lim dasturining barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi qayd etildi. Tahlil natijalari ushbu bob bo'yicha belgilangan mezonlarning bajarilganini tasdiqlaydi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yaratilgan moddiy-texnik baza, o'quv infratuzilmasi, kompyuter sinflari, Axborot-resurs markazi, elektron kutubxona fondi hamda masofaviy ta'limni tashkil etishga xizmat qiluvchi raqamli resurslar holati tahlil qilindi. O'rganish natijasida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur moddiy-texnik sharoitlar yaratilgani, masofaviy ta'lim teacher-elms.namdtu elektron platformasi orqali uzluksiz amalga oshirilayotgani hamda mazkur tizim o'quv materiallari, topshiriqlar, nazorat va muloqot jarayonlarini samarali boshqarish imkonini berayotgani aniqlandi. Shuningdek, kompyuter sinflari, Axborot-resurs markazi, elektron kutubxona resurslari va internet tarmog'i

talabalarning o'quv, ilmiy hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun yetarli darajada shakllantirilgani qayd etildi. Masofaviy ta'limning uzluksiz va sifatli tashkil etilishida server-platforma infratuzilmasining barqaror ishlashi, axborot xavfsizligini ta'minlash hamda elektron ta'lim resurslari fondini muntazam yangilab borish muhim omillar sifatida baholandi. Tahlil natijalari moddiy-texnik ta'minot va raqamli infratuzilma belgilangan akkreditatsiya mezonlari hamda amaldagi talablarga to'liq muvofiqligini tasdiqladi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Masofaviy baholashda identifikatsiya va nazorat natijalari bo'yicha amaliy statistik ma'lumotlar bazasi endigina shakllanmoqda.
- ✓ Elektron o'quv resurslarining bir qismi yangilanishga muhtoj.
- ✓ Xalqaro hamkorlik elementlari to'liq ishga solinmagan.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Masofaviy baholashning identifikatsiya va nazorat mexanizmlari bo'yicha analitik hisobotlarni tizimli shakllantirish.
- ✓ teacher-elms.namdtu platformasidagi elektron kurslar va resurslarni muntazam yangilab borish.
- ✓ Xalqaro hamkorlik va qo'shma onlayn-dasturlar imkoniyatlarini kengaytirish.
- ✓ Amaliyotchi buxgalter-auditorlarni onlayn mashg'ulotlarga jalb etish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Namangan davlat texnika universitetida 60410200 – "Buxgalteriya hisobi" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim jarayonini tashkil etish mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik va raqamli infratuzilma kompleks ravishda tahlil qilindi. O'rganish davomida ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash tizimi amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida shakllantirilgani, dastur davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqilgani aniqlandi. Ta'lim jarayonining kredit-modul

tizimi asosida tashkil etilgani, baholash mexanizmlarining shaffofligi, akademik halollik tamoyillarining amaliyotga joriy etilgani hamda talabalarni qabul qilish va qo'llab-quvvatlash jarayonlari belgilangan tartibda yo'lga qo'yilgani o'z tasdig'ini topdi. Shuningdek, professor-o'qituvchilar salohiyati ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli ekani, masofaviy ta'lim teacher-elms.namdtu elektron platformasi orqali samarali tashkil etilgani hamda zamonaviy raqamli infratuzilma, elektron ta'lim resurslari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish uchun zarur sharoitlar yaratilgani qayd etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, hisobotning barcha 6 ta bobi va 27 ta mezon bo'yicha belgilangan talablar bajarilgani hamda ta'lim dasturining akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligi tasdiqlandi. O'rganish jarayonida aniqlangan ayrim holatlar ta'lim dasturining sifatiga ta'sir ko'rsatmaydigan, uni yanada takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega ekani e'tirof etildi. Umuman olganda, mavjud dalillar va baholash natijalari bakalavriat ta'lim dasturining belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga to'liq mos kelishini ko'rsatdi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	20.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	5-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

